



«TOP ASSIST»

Mas'uliyati cheklangan jamiyati

USTAVI

Toshkent
2022 y.

1- modda. Ushbu Ustav bilan tartibga solinuvchi munosabatlar.

Ushbu Ustav O'zR Fuqarolik kodeksi, "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi qonun(bundan keyin matnda - "qonun" deb yuritiladi) va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarni tashkil etish, faoliyat yuritish, qayta tashkil etish va tugatish sohasidagi munosabatlarni, shuningdek, uning ishtirokchilari huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

2-modda. Firma nomi va joylashuvi.

1. To'liq nomi:

o'zbek tilida: «TOP ASSIST» Mas'uliyati cheklangan jamiyat;

rus tilida: общество с ограниченной ответственностью «TOP ASSIST»

ingliz tilida: «TOP ASSIST» Limited Liability Company

Jamiyatning qisqacha nomi:

o'zbek tilida: «TOP ASSIST» MChJ (bundan keyin matnda - Jamiyat);

rus tilida: ООО «TOP ASSIST»

ingliz tilida: «TOP ASSIST» LLC

2.Jamiyatning yuridik manzili: Toshkent sh., Mirzo-Ulug'bek tumani, Olmachi k., 26

3-modda. Jamiyatning Ishtirokchilari

Jamiyatning yagona ishtirokchisi - Voistinov Konstantin Alekseyevich bo'lib, u quyidagi manzilda joylashgan: Toshkent sh., Yunusobod tumani, 19 mavze,1 uy, 61 xonadon, STIR 450579342

Keyinchalik boshqa yuridik shaxslar va fuqarolar jamiyat ishtirokchilari bo'lishi mumkin.

4-modda. Asosiy qoidalar.

1. Jamiyat 29.12.2021 y. AJ «TOP ASSIST» aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori asosida IFUT 65120, STIR 303198344 - «TOP ASSIST» aksiyadorlik jamiyatini qayta tashkil etish yo'li bilan nomuayyan muddatga tashkil etildi.

2. Jamiyat o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega bo'lib, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi va amalga oshirishi, majburiyatlarga ega bulishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

3. Jamiyat belgilangan tartibda bank hisob raqamlarini ochishga haqli.

4. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan deb hisoblanadi.

5. Jamiyat o'zbek tilida to'liq firma nomi yozilgan, joylashgan joyi ko'rsatilgan dumaloq muhrga ega.

Jamiyat o'zining firma nomi yozilgan shtamplariga va blankalariga, o'z emblemasiga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini, tovarlar, ishlar va xizmatlarni individuallashtiruvchi o'zga vositalarga ega bo'lishga haqli.

6. Jamiyat boshqa yuridik shaxslarning muassisi bo'lishga yoki ularning ustav fondida (kapitalida) boshqacha tarzda ishtirok etishga, vakolatxonalar va filiallar tuzishga haqlidir.

7. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchisi uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zi qo'shgan hissa qiymati doirasida javobgar bo'ladi.

5-modda. Jamiyat Javobgarligi

1. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga qarashli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

2. Jamiyat ishtirokchining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi.

3. Agar ishtirokchining aybi yoki jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxslarning aybi bilan yoki boshqa yo'l bilan jamiyat to'lovga layoqatsiz (bankrotlik) bo'lib qolsa, ushbu ishtirokchi yoki ushbu shaxslarga, agar jamiyat mol-mulki yetarli bo'lmasa, Jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

4. Davlat va uning organlari jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, xuddi shuningdek jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

6-modda. Jamiyatning maqsadi va faoliyati predmeti.

1. Jamiyatni tashkil etishdan maqsad tadbirkorlik foydasini olish uchun sug'urta bozorida professional ishtirok etishdir.

2. Jamiyat faoliyatining predmeti, boshqalarini mustasno qilmagan holda, quyidagilardan iborat:

- syurveyer, ajaster va assistans xizmatlarini ko'rsatish;
- konsalting xizmatlarini ko'rsatish;
- investitsiyaviy faoliyatni amalga oshirish;
- lizing va lizing bilan bog'liq xizmatlarni amalga oshirish;
- avtomobillarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va tekshirish ishlarini olib

borish;

- qonun hujjatlariga muvofiq faoliyatning boshqa turlarini amalga oshirish.

2. Jamiyat har qanday faoliyat turlarini, shu jumladan Ustavda ko'rsatilmagan faoliyat turlarini diversifikatsiya qilish tartibida amalga oshirish uchun zarur bo'lgan fuqarolik huquqlariga va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

3. Agar muayyan faoliyat bilan shug'ullanish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab etilsa, jamiyat litsenziya olganidan keyin ushbu faoliyat turini amalga oshiradi.

7-modda. Jamiyat Ishtirokchisining Huquqlari

1. Jamiyat ishtirokchisi quyidagi huquqlarga ega:

-jamiyat ishlarini boshqarishda qonun hujjatlarida va jamiyat ustavida belgilangan tartibda ishtirok etish;

-qonunchilikda va ustavda belgilangan tartibda jamiyatning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish;

-foydani taqsimlashda ishtirok etish;

-qonun hujjatlarida va ustavda belgilangan tartibda ustav kapitalidagi o'z ulushini yoki uning bir qismini uchinchi shaxslarga sotish yoki boshqacha tarzda berish;

-boshqa a'zolar yo'qligida jamiyat faoliyatini to'xtatgan holda istalgan vaqtda Jamiyat tarkibidan chiqish;

-jamiyat tugatilgan taqdirda kreditorlar bilan hisob-kitoblardan keyin qolgan mol-mulkni yoki uning qiymatini olish;

-qonun hujjatlarida va jamiyat ustavida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega bo'lish.

8-modda. Ishtirokchining Majburiyatlari.

1. Jamiyat ishtirokchisi:

-qonun hujjatlarida, ustavda va o'zi tomonidan qabul qilingan qarorlarda nazarda tutilgan tartibda, miqdorlarda, usullarda va muddatlarda hissalar kiritishi;

-jamiyat faoliyati haqidagi sir tutilgan axborotni oshkor qilmasligi;

-u tomonidan qabul qilingan qarorlarni bajarishi;

-huquqlarni amalga oshirish va majburiyatlarni bajarishda jamiyat manfaatlarini ko'zlab vijdonan va oqilona harakat qilishi shart.

Ishtirokchi qonun hujjatlarida, ustavda va o'zi qabul qilgan qarorlarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi.

9-modda. Ustav fondi.

1. Jamiyatning ustav fondi 10 000 000(o'n million) so'm ni tashkil etadi.

2. Ustav kapitalining 100 % ni tashkil etuvchi, nominal qiymati 10 000 000 (o'n million) so'm bo'lgan ulushning yagona egasi Voistinov Konstantin Alekseyevich hisoblanadi.

10-modda. Jamiyat ustav fondiga hissalar

1. Jamiyatning ustav fondi milliy va xorijiy valyutadagi pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, ko'char va ko'chmas mulk, intellektual mulk, mulkiy huquqlar yoki pul qiymatiga ega bo'lgan boshqa mulkiy huquqlar hisobidan shakllanishi mumkin.

Ustav fondi xorijiy valyutada shakllantirilgan taqdirda omonat summasi summa ekvivalentida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining depozit qo'yilgan kundagi kursi bo'yicha belgilanadi.

11-modda. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish

1. Jamiyat ustav fondini ko'paytirishga faqat u to'liq shakllantirilganidan keyin yo'l qo'yiladi.

2. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish jamiyat mulki, ishtirokchining qo'shimcha omonatlari va (yoki) jamiyatga qabul qilinadigan boshqa shaxslarning omonatlari hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

12-modda. Jamiyatning ustav fondini uning mol-mulki hisobidan ko'paytirish.

1. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) jamiyatning mol-mulki hisobiga ko'paytirish to'g'risidagi qaror bunday qaror qabul qilingan yildan oldingi yil uchun jamiyatning buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosidagina qabul qilinishi mumkin.

2. Jamiyatning mol-mulki hisobidan ustav fondi ko'paytiriladigan miqdor sof aktivlar qiymati bilan jamiyatning ustav fondi va zahira fondi summasi o'rtasidagi farqdan oshmasligi kerak.

3. Jamiyatning ustav kapitalining oshishi bilan ushbu moddaga muvofiq Ishtirokchi ulushining nominal qiymati mutanosib ravishda oshiriladi.

13-modda. Ishtirokchining qo'shimcha hissalar va boshqa jamiyatga qabul qilinayotgan shaxslarning hissalar hisobiga jamiyatning ustav fondini ko'paytirish;

1. Ishtirokchining yoki jamiyat a'zosi sifatida qabul qilinayotgan boshqa shaxslarning qo'shimcha hissa qo'shish yo'li bilan ustav fondini ko'paytirish to'g'risidagi qarorda qo'shimcha hissaning ma'lum umumiy qiymati, qo'shimcha hissa qiymatining miqdori, qo'shimcha hissani to'liq to'lash muddati ko'rsatilishi kerak.

2. Jamiyat a'zoriga qabul qilingan shaxsning arizasida hissa qo'shish tartibi, hajmi, usullari va muddati, shuningdek ushbu shaxsning Jamiyatning ustav fondida ega bo'lishni hohlagan ulushining miqdori ko'rsatilishi kerak.

2. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish to'g'risidagi qaror bilan bir vaqtda uning ustaviga ustav fondi miqdorini oshirish bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilinishi kerak.

3. Qo'shimcha hissalar qo'shish muddati tugagan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay ishtirokchi qo'shimcha hissalar qo'shish yakunlarini tasdiqlash, shuningdek jamiyat ustaviga ustav fondi miqdorini oshirish, ishtirokchi ulushining nominal qiymatini oshirish, jamiyat ishtirokchilariga qabul qilingan ulushlarning nisbati o'zgarishi bilan bog'liq o'zgarishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishi kerak.

Ishtirokchi (boshqa shaxslar) ning qo'shimcha hissasini qo'shish hisobiga ustav fondi ko'paytirilganda hissalar qo'shish muddatlari bajarilmagan taqdirda, ishtirokchi o'zi qo'shgan qo'shimcha hissalar hisobga olgan holda ishtirokchi (boshqa shaxslar) ulushining tegishli o'zgarishi bilan kiritilgan miqdorga qo'shimcha hissalar dastlab belgilangan umumiy qiymatini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir;

4. Jamiyat ustav fondi miqdorining ko'payishi, Ishtirokchi ulushining nominal qiymatining ko'payishi yoki uning kamayishi bilan bog'liq o'zgarishlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlar, boshqa shaxslar – ishtirokchilar paydo bo'lishi, nominal qiymatini aniqlash va boshqa shaxsning ulushining miqdori, shuningdek Ishtirokchi tomonidan qo'shimcha hissa kiritilganligini va boshqa shaxslar to'liq hissa to'laganligini tasdiqlovchi hujjatlar yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organga Ishtirokchi tomonidan tasdiqlangan sanadan bir oydan kechiktirmay taqdim etilishi kerak.

14-modda. Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish

1. Jamiyat o'zining ustav kapitalidagi ulushning nominal qiymatini kamaytirish va (yoki) jamiyatga tegishli ulushni sotib olish yo'li bilan ustav kapitalini kamaytirishga haqli, shuningdek, qonun hujjatlarida va ustavda nazarda tutilgan hollarda majburdir.

Agar bunday kamaytirish natijasida Jamiyat ustav fondining miqdori litsenziya talablariga muvofiq belgilangan ustav fondining eng kam miqdoridan (litsenziya mavjud

bo'lgan taqdirda) kam bo'ladigan taqdirda, jamiyat o'z ustav fondini kamaytirishga haqli emas.

2. Jamiyatning ustav kapitali uni ko'paytirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab bir yil ichida to'liq to'lanmagan taqdirda, Jamiyat o'z ustav kapitalining Ishtirokchining qarori bilan belgilangan va amalda to'langan miqdorga kamayganligini e'lon qilishi va kamayishini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish yoki jamiyatni tugatish to'g'risida qaror qabul qilish shart.

3. Agar ikkinchi va har bir keyingi moliyaviy yil oxirida jamiyat sof aktivlarining qiymati ustav kapitalidan kam bo'lsa, jamiyat ustav kapitalining sof aktivlar qiymatidan oshmaydigan miqdorga kamayganligini e'lon qilishi, shuningdek bunday pasayishni belgilangan tartibda qayd etish.

4. Agar ikkinchi va har bir keyingi moliyaviy yil oxirida sof aktivlarning qiymati davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanada litsenziya talablarida belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdoridan kam bo'lsa, jamiyat tugatilishi kerak.

15-modda. Ishtirokchining ustav fondidagi ulushini (ulushning bir qismini) boshqa shaxsga o'tishi

1. Jamiyat ishtirokchisi jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushini boshqa shaxslarning foydasiga voz kechishga haqli.

2. Ishtirokchi tomonidan ulushni (ulushning bir qismini) berish oddiy yozma shaklda amalga oshirilishi kerak. Ulushni (ulushning bir qismini) o'tkazish bo'yicha bitim shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emas deb topilishiga olib keladi.

16-modda. Jamiyatga tegishli ulushlar va ularni sotib olish.

1. Jamiyat Ishtirokchi ulushining bir qismini olishi shart:

- ishtirokchi tomonidan ulushni sotib olish to'g'risida jamiyatga talab taqdim etilganda;

- Jamiyat Ishtirokchisi ulushi qismining haqiqiy qiymatini uning kreditorlarining talabiga binoan jamiyat tomonidan to'lanishi.

2. Ulushning bir qismi sotib olingan taqdirda, jamiyat ulushning bir qismi jamiyatga o'tish paytidan boshlab bir yil ichida ishtirokchiga ulushning haqiqiy qiymatini, bu esa jamiyatning ulushning bir qismini jamiyat balansiga o'tkazish sanasidan oldingi oxirgi hisobot davri uchun moliyaviy hisoboti tayangan holda aniqlanib, to'lashi shart, yoki ishtirokchining roziligi bilan unga bir xil qiymatdagi mol-mulk beriladi.

Ulushning bir qismining haqiqiy qiymati jamiyatning sof aktivlari qiymati va uning ustav fondi miqdori o'rtasidagi farq hisobiga to'lanadi. Bunday farq yetarli bo'lmasa, jamiyat o'z ustav fondini yetmay qolgan miqdorga kamaytirishga majburdir.

3. Jamiyatga tegishli ulushning bir qismi jamiyatga o'tgan kundan e'tiboran bir yil mobaynida ishtirokchining qarori bilan boshqa shaxslarga sotilgan va to'liq to'langan bo'lishi kerak. Ulushning taqsimlanmagan yoki sotilmagan qismi ustav fondining tegishli miqdorda kamayishi bilan qoplanishi kerak.

4. Jamiyatga tegishli ulushning bir qismi foydani taqsimlashda, shuningdek, Jamiyat tugatilgan taqdirda jamiyatning mol-mulki taqsimlanishida hisobga olinmaydi.

17-modda. Undiruvni jamiyat ishtirokchisining ulushiga qaratish.

1. Jamiyat ishtirokchisining qarzlari bo'yicha undiruv jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qaratilgan taqdirda, jamiyat kreditorlarga jamiyat ishtirokchisi ulushining (ulushi bir qismining) haqiqiy qiymatini to'lashga haqlidir.

18-modda. Jamiyatning foydasining taqsimlanishi

1. Jamiyat yilning har choragida, yarim yilda bir marta yoki bir yilda bir marta o'zining sof foydasini jamiyat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir. Jamiyatning jamiyat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanadigan foydasi qismini aniqlash to'g'risidagi qaror jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

19-modda. Foyda taqsimlanishidagi cheklashlar.

Foyda to'lanishidagi cheklashlar.

1. Jamiyat o'z foydasini taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek uni taqsimlashga haqli emas, agar taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa:

- jamiyatning ustav fondi to'liq to'langunga qadar;

- ustavda nazarda tutilgan hollarda jamiyat ishtirokchisi ulushining (ulushi bir qismining) haqiqiy qiymati to'langunga qadar;

- agar bunday qarorni qabul qilish paytida jamiyat qonunga muvofiq bankrotlik belgilariga javob bersa yoki agar mazkur belgilar jamiyatda shunday qaror qabul qilinishi natijasida paydo bo'lsa;

- agar shunday qarorni qabul qilish paytida jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondidan (ustav kapitalidan) va zaxira fondidan kam bo'lsa yoki shunday qaror qabul qilinishi natijasida ularning miqdoridan kamroq bo'lib qolsa;

- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Ushbu holatlar tugaganidan keyin jamiyat o'z ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishi to'g'risida qaror qabul qilingan foydani to'lashi shart.

20-modda. Zaxira fondi.

1. Jamiyat o'z ustav fondining (ustav kapitalining) 15 % dan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondini vujudga keltirishi mumkin. Jamiyatning zaxira fondi belgilangan miqdorga yetgunga qadar sof foydadan kamida 5 % miqdorida yillik majburiy ajratmalar hisobiga shakllantiriladi.

2. Zaxira jamg'armasi yo'qotishlarni qoplash va Ishtirokchining Ustav fondidagi ulushining bir qismini olish uchun mo'ljallangan.

21-modda. Jamiyatning boshqaruv organlari

1. Jamiyatning Yagona Ishtirokchisi va Bosh direktori jamiyat boshqaruv organlari hisoblanadi.

Jamiyat Ishtirokchisi jamiyat boshqaruvining oliy organi hisoblanadi.

2. Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish jamiyatning yagona ijro etuvchi organi – Bosh direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Bosh direktor Jamiyat Ishtirokchisiga hisobot beradi.

22-modda. Yagona ishtirokchining vakolatlari.

I. Jamiyatning yagona ishtirokchisining mutlaq vakolatiga quyidagilar kiradi:

- 1) jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash va biznes-rejalarni tasdiqlash;
- 2) ustav fondi miqdorini o'zgartirish;
- 3) jamiyat tomonidan kreditorlarga mol-mulkiga undiruv qaratilgan ishtirokchi ulushining haqiqiy qiymatini to'lash to'g'risida qaror qabul qilish;
- 4) ishtirokchining ulushini (ulushning bir qismini) garovga qo'yish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 5) Ustav fondiga pulsiz hissalarining pul bahosini tasdiqlash to'g'risidagi qarorni qabul qilish;
- 6) ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki ularning yangi tahririni tasdiqlash;
- 7) yillik hisobotlar va yillik balanslarni tasdiqlash;
- 8) sof foydani taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish;
- 9) bosh direktorni tayinlash va uning faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlash;
- 10) auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish, auditorlik tashkilotlari hamda ularning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini aniqlash;
- 11) boshqa yuridik shaxslar va notijorat tashkilotlar ustav fondida ishtirok etish, boshqa korxonalarni tashkil etish, vakolatxonalar va filiallarni tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 12) qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 13) tugatuvchini tayinlash va tugatish balanslarini tasdiqlash;
- 14) mol-mulkni olish, tasarrufdan chiqarish yoki jamiyat bevosita yoxud bilvosita tasarrufidan chiqarish yoki chiqarish imkoniyati bilan bog'liq yirik bitimlar tuzish, qiymati bunday operatsiyalarni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan oldingi oxirgi hisobot davrida moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida belgilangan sof aktivlarning yigirma besh foizdan ortiq bo'lgan yirik bitimlar tuzish;
- 15) Jamiyat tomonidan Ishtirokchi ulushining bir qismini sotib olinishi;
- 16) Jamiyatning oddiy xo'jalik faoliyati doirasidan tashqariga chiqadigan bitimlar loyihalarini tasdiqlash: sotib olish, sotish, ijaraga berish, foydalanish, jamiyatning asosiy fondlarining kafolati, kreditlar va kafilliklarni olish va berish, boshqa yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi ulushlar miqdorini o'zgartirish va boshqalar.

Jamiyat Ishtirokchilari umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga taalluqli masalalar Bosh direktor tomonidan hal qilishga berilishi mumkin emas.

23-modda. Jamiyat faoliyatini sarhisob qilish.

1. O'tgan yil davomida jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini sarhisob qilish yiliga bir marta moliya yili tugaganidan keyin 6 oydan kechiktirmay amalga oshiriladi.
2. Natijalarni sarhisob qilishda Ishtirokchi Jamiyat faoliyatining yillik natijalarini va amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa masalalarni albatta tasdiqlaydi.

3. Jamiyat tomonidan Ishtirokchiga taqdim etilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar va materiallarga quyidagilar kiradi:

- jamiyatning yillik hisoboti;
- moliyaviy hisobotning ishonchliligi va buxgalteriya hisobi tartibini belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risidagi auditorlik xulosasi (agar audit o'tkazilsa);
- jamiyat bosh direktori lavozimiga nomzod (nomzodlar) haqida ma'lumot;
- ishtirokchi ko'rsatgan boshqa ma'lumotlar (materiallar).

4. O'tgan yil davomida Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini sarhisob qilish Ishtirokchining qarori shaklida yozma ravishda rasmiylashtiriladi.

Qarorda quyidagilar ko'rsatiladi:

- sarhisob qilish amalga oshirilayotgan joy va vaqt
- sarhisob qilishda qatnashgan mansabdor shaxslarning ro'yxati, chiqishlarning asosiy holatlari;

- har bir masala bo'yicha qabul qilingan qarorlar.

Qabul qilingan masalalar bo'yicha qaror yagona Ishtirokchi tomonidan imzolanadi.

24-modda. Jamiyat Bosh direktori

1. Jamiyat bosh direktori keyingi muddatga qayta saylanish huquqi bilan bir yil muddatga tayinlanadi.

2. Jamiyat Bosh direktori:

2.1. Jamiyatning amaliy-iqtisodiy faoliyatiga rahbarlik qiladi, ishonchnomasiz jamiyat nomidan ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi va bitimlar tuzadi.

2.2. Jamiyat nomidan vakillik qilish huquqiga ishonchnoma beradi.

2.3. Jamiyat xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va tugatadi, jamiyat xodimlarini lavozimlarga tayinlash, ularni boshqasiga o'tkazish va ishdan bo'shatish to'g'risida buyruq beradi, rag'batlantirish va intizomiy jazo choralarini qo'llaydi.

2.4. Jamiyat mulkini boshqaradi va o'z vakolatlari doirasida bitimlar tuzadi (bajaradi).

2.5. Jamiyat tomonidan quyidagilarning tayyorlanishini ta'minlaydi: ma'lum davr uchun faoliyati to'g'risida hisobot; oddiy tadbirkorlik faoliyati doirasidan tashqariga chiqadigan bitimlar tuzish uchun asoslar; Jamiyatni rivojlantirishning joriy va istiqbolli rejalari.

2.6. Yuridik shaxs rahbarining vakolatlariga qonun bilan yuklangan va u bilan tuzilgan mehnat shartnomasida nazarda tutilgan boshqa barcha vakolatlarni amalga oshiradi.

3. Jamiyatning bosh direktori o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda jamiyat manfaatlarini yo'lida vijdonan va oqilona harakat qilishi kerak.

Bosh direktor, agar boshqa asoslar va javobgarlik miqdori qonun hujjatlarida belgilanmagan bo'lsa, aybdor xatti-harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun jamiyat oldida javobgar bo'ladi.

25-modda. Yirik bitim

1. Bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinadigan kundan oldingi oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlangan jamiyat mol-mulki qiymatining yigirma besh foizidan ortiq qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni jamiyat olishi, tasarrufidan chiqarishi yoki jamiyat bevosita yoxud bilvosita mol-mulkni tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan bitim yoki o'zaro bog'liq bir necha bitim yirik bitim deb hisoblanadi.

Ushbu moddaning maqsadlari uchun yirik bitim natijasida jamiyat tomonidan mol-mulkka begonalashtirilgan qiymat uning buxgalteriya ma'lumotlari asosida va jamiyat tomonidan sotib olingan mol - mulkning qiymati-taklif narxi asosida belgilanadi.

2. Ushbu moddada nazarda tutilgan talablarni buzgan holda tuzilgan yirik bitim jamiyat yoki Ishtirokchining da'vosiga ko'ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

26-modda. Jamiyat tomonidan bitim tuzishdan manfaatdorlik

1. Bosh direktorning manfaati bo'lgan bitimlar ishtirokchining roziligisiz amalga oshirilmaydi.

Bosh direktor, agar uning turmush o'rtog'i, ota-onasi, farzandlari, aka-uka, opa-singillari va (yoki) ularning affillangan shaxslari:

- bitim tarafi bo'lsa yoki jamiyat bilan munosabatlarida uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko'zlab harakat qilsa;

- bitim tarafi bo'lgan yoki jamiyat bilan munosabatlarida uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko'zlab ish yurituvchi yuridik shaxs aksiyalarining (ulushlarining, paylarining) yigirma yoki undan ortiq foiziga (har biriga alohida yoki jami) egalik qilsa;

- yuridik shaxsning boshqaruv organlarida bitim tarafi bo'lgan yoki uchinchi shaxslarning jamiyat bilan munosabatlaridagi manfaatlari yo'lida harakat qilayotgan lavozimlarni egallab turgan taqdirda manfaatdor hisoblanadi.

2. Jamiyat manfaatdor bo'ladigan bitim tuzilishi to'g'risidagi qaror Ishtirokchi tomonidan qabul qilinadi.

3. Manfaat mavjud bo'lgan bitimni tuzish, agar bitim odatdagi ish jarayonida tuzilgan bo'lsa, Ishtirokchining qarorini talab qilmaydi.

27-modda. Audit.

1. Moliya hisobotlari to'g'riligini, buxgalteriya hisobini yuritish tartibining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish uchun jamiyat Ishtirokchisi qaroriga binoan qonunchilikda belgilangan tartibda auditorlik tashkiloti jalb etiladi.

Auditorlik tekshiruvi Ishtirokchi qarori bilan bir yil yoki boshqa davrdagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

2. Jamiyat bosh direktori va tarkibiy bo'linmalarining O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, ustavi va ichki hujjatlarga rioya etilishi bo'yicha ishlarini nazorat qilish va baholash; buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq va haqqoniyligini ta'minlash, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib - taomillari, aktivlarning saqlanishi, shuningdek, korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish uchun Jamiyatda tarkibiy bo'linma - ichki audit xizmati tashkil etiladi.

Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning faoliyati Jamiyat Ishtirokchisi tomonidan tasdiqlanadigan nizom asosida amalga oshiriladi.

28-modda. Jamiyat hujjatlarini saqlash

1. Jamiyat qonunchilikda belgilangan muddat mobaynida quyidagi hujjatlarni saqlashi shart:

- Jamiyatning ta'sis hujjatlari, shuningdek jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan hamda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar;

- Jamiyat muassislari yig'ilishining jamiyatni tashkil etish va jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan pulsiz hissalarining pul bahosini tasdiqlash to'g'risidagi qarorni, shuningdek jamiyatni tashkil etish bilan bog'liq boshqa qarorlarni;

- Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat;

- Jamiyatning o'z balansida turgan mol-mulkka bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;

- Jamiyatning ichki hujjatlari;

- Jamiyatning filiallari va vakolatxonalari to'g'risidagi ustavlar;

- Jamiyat Ishtirokchilarining qarorlari;

- Jamiyat auditorining xulosalari;

- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hujjatlar.

2. Jamiyat ushbu moddada ko'zda tutilgan hujjatlarni bosh direktor joylashgan joyda saqlaydi.

29-modda. Jamiyatni qayta tashkil etish

1. Ishtirokchining qarori bilan Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tashkil etilishi mumkin.

2. Jamiyatni qayta tashkil etish qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish va qayta tuzish shaklida amalga oshirilishi mumkin.

3. Jamiyat, birlashtirish shaklidagi qayta tashkil etish hollarini istisno etganda, qayta tashkil etish natijasida tuziladigan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi.

Jamiyat unga boshqa jamiyatni birlashtirish shaklida qayta tashkil etilganda, ulardan birinchisi yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga birlashtirilgan jamiyat faoliyati tugatilgani haqida yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi.

30-modda. Jamiyatni Tugatish

1. Jamiyat jamiyat ustavi talablari hisobga olingan holda yoki sud qarori bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ixtiyoriy ravishda tugatilishi mumkin.

Jamiyatning tugatilishi uning faoliyatini huquq va majburiyatlarni merosxo'rlik yo'li bilan boshqa shaxslarga o'tkazmasdan tugatishga olib keladi.

2. Jamiyatni ixtiyoriy ravishda tugatish va tugatuvchini tayinlash to'g'risidagi qaror direktor taklifiga ko'ra yoki ishtirokchining o'z tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin.

3. Tugatuvchi tayinlangan paytdan boshlab Jamiyat ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar unga o'tadi. Tugatuvchi jamiyat nomidan sudda ish yuritadi.

31-modda. Tugatishdan keyin jamiyatning mol-mulkini taqsimlash.

1. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar tugagandan so'ng qolgan jamiyat mol-mulki ta'sischi o'tkaziladi.

32-modda. Yakuniy qoidalar

Ushbu Ustav bilan tartibga solinmagan masalalar "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda jamiyat ishtirokchisining qarorlariga muvofiq hal etiladi.

Васильков Константин Алексеевич 